

## AHMAD YUGNAKIYNING AXLOQ G'OYASI VA UNING HOZIRGI ZAMON FALSAFASI RIVOJI UCHUN AHAMIYATI

**Ergashev Sobirjon Erkin o'g'li**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 2 -kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: PhD. To'rayev L.*

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

*Ushbu maqola Ahmad Yugnakiyning axloq g'oyasi va uning hozirgi zamon falsafasi rivoji uchun ahamiyati haqida.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *Ahmad Yugnakiy, Hibat ul Haqoyiq, Islom dini, Qur'on Karim, hadislar, Qoraxoniylar, axloq, amaliy axloq, Abu Ali ibn Miskavayh, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abul Barakat al – Bag'dodiy*

**Аннотация:** *Эта статья посвящена идее этики Ахмада Юнгнаки и ее значению для развития современной философии.*

**Опорные слова и выражения:** *Ахмад Юнгнаки, Хибат уль Хакайк, исламская религия, Священный Коран, хадисы, Караханиды, этика, практическая этика, Абу Али ибн Мискавайх, Ибн Сина, Абу Райхан Беруни, Абул Баракат аль-Багдади*

**Abstract:** *This article is about Ahmad Yugnaki's idea of ethics and its significance for the development of contemporary philosophy.*

**Keywords and expressions:** *Ahmad Yugnaki, Hibat ul Haqaiq, Islamic religion, Holy Quran, hadiths, Karakhanids, ethics, practical ethics, Abu Ali ibn Miskawayh, Ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, Abul Barakat al-Baghdadi.*

Ilm dunyosidagi har qanday ilmning tarixisiz nazariyasi bo'lmaydi, degan hikmat, ayniqsa axloqshunoslikka taalluqlidir. Zero, axloqshunoslik tarixi axloqiy tafakkurning vujudga kelishi hamda uning taraqqiyoti qonuniyatlarni o'rganadi, ma'naviy merosning ulkan qismi bo'lishi axloqiy ta'limotlar, hikmatlar, pand-o'g'itlarni zamonaviy jamiyat hayotiga tadbiiq etish targ'ib qilish yo'llarini tahlil etadi. Garchand har bir axloqiy konsepsiya ma'lum bir mutafakkir mulohazalari va faoliyatining mevasi bo'lsada, u mohiyatan, muayyan tarixiy davr talabidan kelib chiqadi. Ayni paytda, turli odob va axloqiy qonun-qoidalarini o'z ichiga oladigan axloqiy targ'ibot muammolari, axloqiy pand-o'g'itlar va me'yoriy talablarni bajarish, axloqiy boshqarish sohasiga kiradi hamda axloqshunoslikning odatda "amaliy axloq" deb ataladigan qismini tashkil etadi.

Amaliy axloqning dastlabki namunalari bundan 3 yarim ming yil avval paydo bo'ldi.

Falsafiy-axloqiy oqimlar borasida gap ketganda, musulmon Sharqida ikki yo'nalish alohida o'rin tutadi. Bular mashshoyyunlik va tasavvuf axloqshunosligi. O'rta

asr musulmon Sharqida mashshoyyunlik yoki, boshqacha qilib aytganda, arastuchilik oqimining vakillari buyuk mutafakkirlar al-Forobiy, at-Turkiy, Abu Ali ibn Miskavayh, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abul Barakat al – Bag‘dodiy, Umar Xayyomlar hisoblanadi.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta‘minlaydi. U o‘z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o‘z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi, o‘z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning boy merosimiz tarixida ham shunday shaxslar borki, ularning hayot yo‘li, asarlari, va qilgan barcha yaxshi amallari avlodlarning ma‘naviy kamoloti uchun arzigulik ahamiyat kasb etadi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, al-Hakim at-Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizdan qolgan ilmiy-ma‘naviy meros Sharq uyg‘onish davrining durdonalari maqomida dunyo ahli tomonidan haqli ravishda tan olingan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo o‘rta asrlar ilmiy-madaniy markazlaridan biri sifatida boshqa mintaqalardagi Renessans jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani jahon ilm-fanida o‘z tasdig‘ini topgan. Shubhasiz, yuqoridagi ajdodlariz safiga Adib Ahmad Yugnakiyni ham qo‘sha olamiz. Adib Ahmadning boy ma‘naviy-ma‘rifiy fikrlari barkamol avlodni rivojlantirish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda rivojlanish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Shunday islohotlardan biri bu shubhasiz Prezidentimiz tabirlari bilan aytganda “Yangi O‘zbekiston” tushunchasida mujassam bo‘lgan xalq orzusini amalga oshirishdir. Yangi O‘zbekiston tushunchasi o‘zida “...mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g‘oyasini ifoda etadi. Ana shu g‘oya asosida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari” degan shior ilgari surilayotgani ham bejiz emas” .

G‘arb adabiyotlarida Yevropa mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV-XVII asrlarni Renessans - Uyg‘onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko‘pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo‘lganligidan ko‘z yumadilar. Holbuki, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Yevropadan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. U Yevropadagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya‘ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lmagan bo‘lsa-da, madaniyat tarixida so‘nmas iz qoldirdi va Yevropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

1909-yil mashhur sharqshunos olim Adam Mets o'zining "Musulmon Renessansi" nomli asarini yozadi. Bu asar asosan IX-X asrlarda musulmon sharqida ro'y bergan ilm-fan, san'at va madaniyatning rivojlanishi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Aynan shu asardan so'ng butun yevropada Sharq Renessansi atamasiga nisbatan boshqacha qarash uyg'ondi.

Biz IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri, aniqrog'i ilk Uyg'onish davri madaniyati deb atashga to'la asosimiz bor. Bu ilk Uyg'onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Bu davrda yashagan mutafakkirlarning deyarli barchalariga quyidagi xususiyatlar xos edi: madaniyatning o'tmishda erishgan yutuqlarini, xususan, qadimgi Yunon, Hind, Xitoy merosini chuqur o'rganish va uni ijodiy rivojlantirish, tabiatni o'rganishga qiziqishning ortishi va tabiiy fanlar taraqqiyoti (astronomiya, geografiya, riyoziyot (matematika), meditsina va hokazo); ratsionalizm, ya'ni aqlni haqiqatning mezoni sifatida tan olish va buning natijasida mantiqiy rivojlantirish, aqidaparastlikni rad etish va hurfikrlilikning rivojlanishi; insonparvarlikni ulug'lash, insonning axloqiy, ma'naviy go'zalligini, kamoloti Allohning yuksak in'omi sifatida talqin etilishi, so'z san'atiga muhabbat, ilmiy asarning badiiy shakliga alohida e'tibor berilishi, qomusiy bilimlarga ega bo'lishlik. Bu davrda yashagan mutafakkirlar fan va san'atning ko'p sohalarini chuqur bilgan allomalar bo'lganlar. Bu davrda Yaqin Sharqda Al-Ma'mun xalifalik qilgan davrda (813-833) davlat ilm-ma'rifatining o'sishiga yordam berdi.

Adibning boy merosida ham yuqorida aytganimizdek, insonparvarlik, axloqiy kamolot yo'llari, so'z va uning mohiyati, adolatpeshalik, vatanga muhabbat singari purmano fikrlar jam boldi va ular keyingi davr falsafiy qarashlar zaminida o'z aksini topdi.

Falsafada shunday kategoriya borki, uni vorisiylik deb atashadi. Axloqiy madaniyatning o'ziga xosligi uning vorisiylik qonuniyatlarida ko'zga tashlanadi. Buning ma'nosi shuki, yangi avlod o'zidan oldin yuzaga kelgan axloqiy qadriyatlardan ijodiy foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Malumki, ilk axloqiy ta'savvurlar zardushtiylikning muqaddas kitobi – "Avesto" da, turkiy xalqlarning qadimgi bitiklarida, yozma va og'zaki adabiyotining rang-barang asarlarida, xususan, pandnoma, odobnoma kabilarda, buyuk allomalarning falsafiy merosida alohida o'rin egallagan.

Adib Ahmadning pandnomalari ham vorisiylik nuqtai nazaridan keyingi davr badiiy adabiyotida o'z aksini topadi. Jumladan, "Adib Ahmad turkiy adabiyot tarixida Qur'oni karim oyatlari va tabarruk hadislarini birinchilardan bo'lib she'riyatga olib kirgan, ularning mag'zini she'riy usulda yoritib bergan ijodkor hamdir. Adib boshlab

bergan ushbu an'ana O'rto osiyo xalqlari adabiyotida arba'inchilik an'anasida avjiga chiqdi"<sup>33</sup>.

Shuningdek, "Qoraxoniylar davri yozma adabiyoti, turkiy didaktik she'riyat takomilida ham Adib Ahmadning ulushi katta. Qoraxoniylar davrida yuzaga kelgan yozma adabiyot va adabiy til an'analari turkiy adabiyot va adabiy tilining keyingi takomil yo'lini belgilab berdi. Ayniqsa, XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan mumtoz o'zbek adabiyoti namoyondalari, xususan, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga qoraxoniylar davri adabiyoti va adabiy tili kuchli ta'sir ko'rsatgan"<sup>34</sup>.

Bundan tashqari keyingi davr ijtimoiy fikr taraqqiyotida ham Adib Ahmad fikrlari o'z o'rniga ega hisoblanadi. Ayniqsa Adibning didaktik qarashlari ilk o'rta asrlar Sharq falsafasidan oziqlangan bo'lsa, o'z navbatida Tumuriylar davrida falsafiy qarashlar rivojida ancha keng tarqaladi., ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida o'z o'rniga ega bo'ladi.

"Bu sohada ma'lum ma'noda "al-Abad al-Kabir", "al-Adab as-Sag'ir" kitoblarining muallifi Ibn al-Muqaffaga (759-yili o'ldirilgan) munosib izdosh, arab olamining buyuk adibi al-Johizga (775–868) salaf bo'ldi"<sup>35</sup>.

Falsafa tarixi sohasida ilk o'rta asr Sharq falsafasi deganda IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri tushuniladi. Bu davrni ba'zi tadqiqotchilar Sharq fani va madaniyatining Uyg'onish davri yoki "oltin davri" deb e'tirof etadilar. O'sha davrda arab xalifaligi tarkibiga kirgan Movarounnahr va Xuroson mintaqasi yuz bergan madaniy-ma'rifiy yuksalishni ta'minlovchi va harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biri edi. Bu xulosa, birinchi navbatda, bu ilmiy yuksalishda ishtirok etgan mutafakkirlarning asosiy qismi ushbu zamin farzandlari bo'lgani bilan izohlanadi"<sup>36</sup>.

O'zbek davlatchilik tarixida Temuriylar davri faqat o'zbek xalqi madaniyatigagina emas ilm-fan va falsafiy fikr tarixida ham butun Markaziy Osiyo uyg'onish davriga asos solgan taraqqiyot davri bo'ldi. Temur va temuriylar davrida uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi boshlandi.

"Mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosi ulkan xazina, unda mujassam bo'lgan insoniylik fazilatlar har bir davr uchun muhim ahamiyatga ega. Navoiy ijodiyoti mohiyatiga yetish, uning shaxsiyatiga yaqinlashishda shoigacha yashab, ijod qilgan qalam ahlining lirik merosini o'rganish va tahlil qilish ham yaqindan yordam beradi. Yusuf Amiriy, Atoyi, Lutfiy, Gadoiy kabi shoirlarning g'azallari Navoiyning ko'plab lirik asarlari uchun turtki bergan. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si, Haydar Xorazmiyning

<sup>33</sup> Adib Ahmad Yugnakiy Hibatu-l-haqoyiq / Sodiqov Q. transkripsiyasi, talqini va tahlili. – T.: Akademnashr, 2019. – B. 3.

<sup>34</sup> O'sha asar. – B. 3.

<sup>35</sup> Xayrullayev M. Manaviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – B 148.

<sup>36</sup> Abduhalimov B. A. "Bayt al-hikma" va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati: (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). –T.oshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. –B. 209.

“Maxzan ul-asror”iyu Sayid Ahmadning “Taashshuqnoma”si, Lutfiyning “Gul va Navro‘z”iyu Yusuf Amiriyning “Dahnoma”si Alisher Navoiy liro-epik dostonlari yaratilishida o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tagan. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni buyuk shoirning komil inson xususidagi hikmatlariga ilhom bergan<sup>37</sup>.

Ma’lumki, Ahmad Yugnakiy islom dini qonun-qoidalarini chuqur bilish, ularga amal qilish bilan birga tasavvuf ta’limotidan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. “Hibat ul-haqoyiq”da Adib Ahmadning tasavvuf va javonmardlik g‘oyalaridan ilhomlanib yozgan satrlariga tez-tez duch kelamiz. Masalan:

Axi er bilikni yeta bildi ko‘r,  
Anin sotti molin sano oldi ko‘r.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida ham Navoiy Adib Ahmad fazilatu xislatlarini hurmat ila tilga oladi: “Va aning tili turk alfozi bila mavoizu nasoyihqa

Go‘yo ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatu nuktalari shoye”dur. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoididindur.

Ulug‘lar ne bersa yemasman dema,  
Ilik so‘n, og‘iz ur, yemasang yema!”

“Munshaot” asarida ham asriy muammolardan bo‘lgan ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasi haqida bahs yuritilgan. Avvalo, shoir asos manbalar Qur‘on va hadisga tayanib shunday yozadi: “Payg‘ambar sallallohi alayhi vassalam buyurubturkim, «rizour-robbi fir-rizail validi va saxatur-robbi fi saxatil-validi» ya’ni Tengri taolo rizosi ota rizosig‘a vobastadur va Tengri taolo g‘azabi ham ota g‘azabig‘a vobastadur. Bas kishi ota rizosini hosil qilsa, Tengri taolo rizosini ham hosil qilmish bo‘lg‘ay va ota g‘azabiga uchrasa, Tengri taolo g‘azabiga uchramish bo‘lg‘ay. Mundoq bo‘lg‘ondin so‘ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg‘ay yo qadam qo‘yg‘ay”. Navoiy Adib Ahmadning hikmatli so‘zlaridan ilhomlanadi:

Atodin xato kelsa, ko‘rma xato,  
Savob bil xato, toki qilsa xato.  
Atoning xatosini bilgil savob,  
Seni yuz balodin qutqargay Xudo<sup>38</sup>.

Temuriy shahzodalar o‘rtasidagi nizolar avj olgan pallada, Husayn Boyqaro farzandlarining otasiga bo‘lgan behurmatliklari haddan oshgan bir davrda hazrat Navoiy bu to‘rtlikni aynan topib keltirgan edi. Ma’lumki, buyuk mutafakkir juda ko‘p asarlarida ota-bola munosabatlariga alohida o‘rin ajratgan. “Xamsa” dostonlaridagi ibratomuz hikoyalar, Farhod va Iskandarning padariga bo‘lgan hurmat-ehtiromi tasvirlari diqqatga sazovor.

Albatta, mutafakkir shoir Husayn Boyqaro va farzandlarining o‘zaro totuvligini ko‘rishni juda xohlagan. Navoiyning noqobil farzandlarga nisbatan qanday

<sup>37</sup> Xo‘janova G. Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar talqini. <https://cyberleninka.ru/article/n/navoiy-ijodida-umuminsoniy-qadriyatlar-talqini>

<sup>38</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 14-tom. – T.: Fan, 2002. – B. 253.

munosabatda ekanligini “Majolis un-nafois”da ham uchratish mumkin. Shoir Abdullatif haqida shunday yozadi: “...savdoyi mizoj vasvasiy ta’b va devonasor kishi erdi. Mundin o’zg’a dag’i g’arib badfe’lliclari bor erdikim, zikridin behijobliq lozim kelur. O’tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o’lturdi. Har oyinakim, saltanat Shiruyag’a vafo qilg’oncha anga qildi”<sup>39</sup>.

Hazrat Navoiyning Adib Ahmad to’rtligini keltirishida ham ma’lum bir mazmun-mohiyat bor. Ya’ni Navoiyning Adib Ahmadga bo’lgan e’tibori uning Sharq musulmon olamida nechog’lik qadrlilik ekanini ko’rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Йакут ал-Хамави. Му’джем ал-булдан / В 8 томах. Т. 8. Миср: Булак, 1906. С. 531.
2. Абу Са’д ‘Абд ал-Карим ибн Мухаммад ас-Сам’ани. Ал-Ансаб / Изд. ‘Абд ар-Рахмана ибн Йахйа ал-Му’аллими ал-Йамани. Байрут. 1981. Т. 3.
3. Негматов Н.Н. Государство Саманидов. Душанбе, 1977. С. 140 – 141.
4. Köprülü M.F. XII-inci asir türk şairi Edip Ahmet. Türkiyat, I, 1925. S. 255–257;
5. Necib Asim. Hibetu’l-hakayik (1-ksm: metin, tercume ve izah. 2- ksm.: faksimile), Istanbul, 1918.

<sup>39</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 17-tom. – T.: Fan, 2002. – B. 414.